



# BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING METODIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI

*Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna*

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti "Pedagogika"  
kafedrasida*

*professori, pedagogika fanlari doktori*

*Mo'minova Adiba*

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 2 bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligini rivojlantirishning ayrim jihatlari bayon etilgan.

**Tayanch tushunchalar:** bo'lajak o'qituvchi, metodik savodxonlik, rivojlantirish, ilm, fan, tizim, kompetensiya, kompetentlik, natija, imkoniyat, ta'limiy faoliyat.

# НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

*Вохидова Норпошшахон Хабибуллаевна*

*Профессор кафедры «Педагогика» Национального педагогического  
университета имени Низами в Узбекистане, доктор педагогических наук*

*Муминова Адипа*

*магистрантка 2-го цикла Национального педагогического университета  
имени Низами в Узбекистане*

**Аннотация.** В статье описаны некоторые аспекты развития методической грамотности будущих учителей.

**Ключевые слова:** будущий учитель, методическая грамотность, развитие, наука, предмет, система, компетенция, компетенция, результат, возможность, образовательная деятельность.

# SOME ASPECTS OF DEVELOPING METHODOLOGICAL LITERACY OF FUTURE TEACHERS

*Vokhidova Norposhshakhon Khabibullayevna*

*Professor of the Department of "Pedagogy" of the Nizami National Pedagogical  
University of Uzbekistan, Doctor of Pedagogical Sciences*

*Mu'minova Adiba*



2nd-cycle master's student of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

**Abstract.** The article describes some aspects of developing methodological literacy of future teachers.

**Key concepts:** future teacher, methodological literacy, development, science, subject, system, competence, competence, result, opportunity, educational activity.

Hozirgi zamon O'zbekiston ta'lim tizimi jadal o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Yurtimizda ta'lim sifatini oshirish, pedagogik jarayonni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish va uni innovatsion texnologiyalar bilan boyitish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Xususan, bo'lajak pedagoglarning kasbiy-mahoratli tayyorgarligi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, ularning metodik savodxonligini shakllantirish ta'lim islohotlarining asosiy tarkibiy qismiga aylangan. 2024-yil 1-fevral kuni qabul qilingan "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar uchun yangi huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qonun o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarlikka puxta hozirlash, ularning metodik savodxonligini rivojlantirish jarayoniga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki bugungi ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – metodik jihatdan savodli, innovatsion yondashuvga ega, raqobatbardosh o'qituvchini tayyorlashdir.

Bugungi globallashuv sharoitida ilg'or xorijiy mamlakatlarning pedagogik tajribalarini chuqur o'rganish, tahlil qilish va uni mahalliy ehtiyojlarga moslashtirish orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyati yaratilmogda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchilarning metodik madaniyatini oshirish, fan asoslarini zamonaviy didaktik vositalar orqali o'rgatish hamda dars jarayonini interaktiv usullarda olib borishni talab qiladi. Metodik savodxonlik nafaqat darsni to'g'ri rejalashtirish, balki har bir o'quvchining psixologik holatini inobatga olgan holda individual yondashuvni qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Shu bois, pedagog kadrlarni tayyorlashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy mashg'ulotlar, treninglar va innovatsion loyihalarda ishtirok etish orqali ularning metodik salohiyati mustahkamlanmogda.

Pedagogika fanida "savodxonlik" tushunchasi insonning intellektual, madaniy va kasbiy rivojlanishini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida qaraladi. **Savodxonlik** – bu shaxsning o'qish, yozish, tushunish, tahlil qilish hamda o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir<sup>1</sup>. Savodxonlik atamasi UNESCO ta'rifiga ko'ra, savodxonlik zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy, madaniy va kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli ishtirok etishiga xizmat qiluvchi asosiy kompetensiya sanaladi<sup>2</sup>. O'zbekiston pedagogik lug'atlarida esa bu atama "**insonning fikrni to'g'ri anglash, ifodalash va ma'lumotdan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyati**" sifatida izohlanadi.

Metodik savodxonlik shunchaki "o'qish-yozish" ning texnik ko'nikmasi sifatida emas, balki **axborotni izlash, qayta ishlash, tahlil qilish, hayotiy vaziyatlarda qo'llash va asosli qaror qabul qilish** singari yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarni o'z ichiga olgan funksional kompetensiya sanaladi<sup>3</sup>. Bu yondashuvning epistemologik ahamiyati shundan iboratki, savodxonlik o'quv jarayonining markaziga

<sup>1</sup>O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. (2021). <https://izoh.uz/word/savodxonlik>

<sup>2</sup>UNESCO Institute for Statistics. (2022). Literacy and Education Overview. Retrieved from <https://uis.unesco.org/en/topic/literacy>

<sup>3</sup>Maxamattayirova M.M., Egamberdiyeva M.D., Sayfiddinova D.O. O'quvchilarning funksional savodxonligini xalqaro baholash tizimlari asosida tahlil qilish // *Models and Methods in*



qo'yilgan faol subyektni shakllantiradi; o'quvchini informatsion oqimlar ichida yo'nala oladigan, mantiqan tahlil qiladigan, o'z bilimni real vaziyatlarda amaliyotga tatbiq eta oladigan ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur talqin PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash tizimlarida qo'llaniladigan funksional yondashuv bilan to'la uyg'un bo'lib, savodxonlikning zamonaviy global standartlarga mos keluvchi kompetensiyalar majmuasi sifatidagi mohiyatini ochib beradi.

**R.Freire ta'kidlashicha**, savodxonlik tarjimai-hol darajasidagi mahorat emas, balki **insonning ijtimoiy ongini uyg'otuvchi, uni tanqidiy fikrlashga, o'z hayotini va jamiyat hayotini o'zgartira oladigan faol subyektga aylantiruvchi emancipator jarayon** sanaladi. Uning fikricha, "matnni o'qish emas, balki dunyoni o'qish" haqidagi qarash savodxonlikni ijtimoiy-madaniy kontekstini ifodlaydi. Freirega ko'ra, savodxonlik – bu insonning ijtimoiy haqiqatni anglash, undagi tengsizlik va hokimiyat munosabatlarini idrok etish va ularga faol aralasha olish qobiliyatidir. Bu yondashuv savodxonlikni ijtimoiy o'zgarishlar mexanizmi, insonning o'zini anglash va jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qiluvchi transformativ amaliyot sifatida talqin qilinadi<sup>4</sup>.

Bizningcha: "Metodik savodxonlik – bu bo'lajak o'qituvchining o'quv jarayonini samarali loyihalash, maqsadga muvofiq usul va vositalarni tanlash, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish va o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilishga qaratilgan integrativ kognitiv, faoliyatga doir va refleksiv kompetensiyalar majmuidir".

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar asosida qayd etish mumkinki, metodik savodxonlik – bu o'qituvchining shaxsiy kasbiy madaniyati, pedagogik tafakkuri va faoliyatni ongli tashkil eta olish qobiliyatining kompleks ko'rinishi bo'lib, metodik jihatdan savodxonlik pedagog uchun uch asosiy vazifani to'g'ri, aniq bajarish imkonini beradi, bular:

1. **Darsning tizimli rejalashtirilish** – maqsad, vazifa, metod, vosita va natijani aniql belgilay olish.
2. **O'quvchilarning individual ehtiyojiga mos yondashuv** – differensial va inkluziv ta'lim tamoyillariga tayanuvchi metod tanlay olish.
3. **Metodlarning samaradorligini tahlil qilish** – refleksiya asosida pedagogik jarayonni takomillashtirib borishni o'z ichiga oladi.

Demak, metodik savodxon pedagog – bu o'z fanini biladigan o'qituvchidan tashqari, ta'lim jarayonining boshqaruvchisi, ijodkori va diagnostik tahlilchisidir. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligi asosiy jihatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Didaktik bilimlar – o'qitish jarayonining tamoyillari, usullari va vositalarini bilish.
2. Pedagogik texnologiyalar – innovatsion ta'lim usullaridan foydalanish qobiliyati.
3. Darsni rejalashtirish – o'quv rejasi va dasturiga muvofiq dars mazmunini shakllantirish.
4. O'quvchilar bilan ishlash – individuallashtirilgan yondashuv, motivatsiyani oshirish va psixologik jihatlarni inobatga olish.
5. Refleksiya va tahlil – o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish qobiliyati.

Bo'lajak o'qituvchilar metodik savodxonligini shakllantirish uchun pedagogik ta'lim dasturlarida nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlar, tajribali o'qituvchilar bilan mentorlik dasturlari va interaktiv treninglar ham muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchilar metodik savodxonligini rivojlantirishning asosiy tamoyillari izchillik va uzluksizlik, nazariya va amaliyot birligi hamda tizimli yondashuv tamoyillaridan tashkil topgan.

---

<sup>4</sup> Freire, P. *Pedagogy of the Oppressed. Continuum, 1970.* – pp. 72–74.



Quyida "Metodik savodxonlikni rivojlantirishning tamoyillari" nomli jadval keltirilgan, bo'lib, jadvalda har bir tamoyilning mohiyati va asosiy mazmuni keltirilgan (jadvalga qarang).

№	Manba / Muallif	Tamoyil nomi	Mazmuni (mohiyati)
1	R. Gagné va L. Briggs (1985) "The Conditions of Learning"	Maqsadlilik va tizimlilik	Bu tamoyil o'qituvchining barcha metodik faoliyati aniq maqsadga yo'naltirilgan va tizimli tarzda olib borilishi kerakligini bildiradi
2	Jekibaeva B.A. (2020) "Summnost metodicheskoy kompetentnosti pedagoga" maqola	Nazariya va amaliyot birligi	Metodik savodxonlikning rivojlanishi uchun nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg'unlashgan bo'lishi zarur.
3	Cheng J. va boshqalar (2023) "Handbook of Teaching Competency Development in Higher Education" asar	Innovatsionlik va moslashuvchanlik	Metodik savodxonlik o'qituvchining yangiliklarni qabul qila olishi, raqamli va interfaol texnologiyalarni o'zlashtirishi orqali rivojlanadi.
4	Masyukova N.G. (2015) "Metodicheskaya kompetentnost v strukture professionalnoy kompetentnosti uchitelya" asar	Refleksivlik va o'zini tahlil qilish	Bu tamoyil o'qituvchining o'z faoliyatini muntazam baholashi, kamchiliklarni aniqlashi va o'z ustida ishlashi zarurligini anglatadi.

### 1-jadval. Metodik savodxonlikni rivojlantirishning tamoyillari

Umuman olganda, metodik savodxonlikning samarali shakllanishi uchun o'qituvchi shaxsida ichki ehtiyoj (motivatsiya), raqamli tayyorgarlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi muhit bir-birini to'ldirishi zarur. Shu uch yo'nalish uyg'unlashgandagina o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi mukammal rivojlanadi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari uchun bo'lajak o'qituvchilarda metodik savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha innovatsion seminar-treninglar joriy etish, metodik fanlar dasturlari takomillashtirish, pedagogik amaliyotga yangi innovatsion yondashuvlarni kiritish hamda metodik savodxonlikni baholash mezonlarini ishlab chiqish ushbu vazifani muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent.: Iste'dod. 2007y.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. (2021). <https://izoh.uz/word/savodxonlik>
3. UNESCO Institute for Statistics. (2022). Literacy and Education Overview. Retrieved from <https://uis.unesco.org/en/topic/literacy>
4. Maxamattayirova M.M., Egamberdiyeva M.D., Sayfiddinova D.O. O'quvchilarning funksional savodxonligini xalqaro baholash tizimlari asosida tahlil qilish // *Models and Methods in Modern Science: International scientific-online conference.* – 2023. – 85–92-betlar.
5. **Freire, P. *Pedagogy of the Oppressed.* Continuum, 1970. – pp. 72–74.**